

UNLILAR BILAN BOG'LIQ FONETIK JARAYONLAR

Umirzaqov Ahrorbek

E-mail: umurzoqovahr50@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16963389>

Annotatsiya: Ushbu maqolada unlilar bilan bog'liq fonetik jarayonlar tahlil qilinadi. Unlilarning talaffuzi va ularning nutqdagi o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan fonetik o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Maqolada unlilar bilan bog'liq asosiy fonetik jarayonlarning sabablari, shakllari va nutqdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik va fonetika sohasida amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, tilning fonetik tizimini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: unli, fonetik jarayonlar, talaffuz, tovush o'zgarishi, nutq, fonetika, tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируются фонетические процессы, связанные с гласными. Рассматриваются фонетические изменения, возникающие в результате произношения гласных и их взаимного влияния в речи. В статье освещаются причины, формы и значение основных фонетических процессов, связанных с гласными, в устной речи. Результаты исследования имеют практическое и теоретическое значение в области лингвистики и фонетики, способствуя лучшему пониманию фонетической системы языка.

Ключевые слова: гласные, фонетические процессы, произношение, звуковые изменения, речь, фонетика, лингвистика.

Annotation. This article analyzes phonetic processes related to vowels. It examines the phonetic changes that occur as a result of the pronunciation of vowels and their mutual interaction in speech. The article highlights the causes, forms, and significance of the main phonetic processes associated with vowels in spoken language. The research findings have both practical and theoretical importance in the fields of linguistics and phonetics, helping to better understand the phonetic system of the language.

Keywords: vowel, phonetic processes, pronunciation, sound change, speech, phonetics, linguistics.

Kirish. Tilning fonetik tizimi uning so'zlashuv jarayonidagi eng muhim qismidir. Tilning to'g'ri va aniq ifodalanishi, nutqning ravonligi, tushunarli va esda qolarli bo'lishi ko'p jihatdan fonetik qonuniyatlarga bog'liq. Unlilar esa tilning fonetik tizimida asosiy o'rin tutadi va ularning talaffuzi, o'zaro ta'siri hamda o'zgarishi fonetik jarayonlarning markaziy mavzusidir.

Unlilar bilan bog'liq fonetik jarayonlar nutqning tabiiyligi va silliqilgini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar talaffuzda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, tovushlarning bir-biriga ta'siri, unli ohangining yumshashi yoki kuchayishi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, unlilar bilan bog'liq fonetik jarayonlarni chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki amaliy nutq madaniyati uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur jarayonlarning nutqdagi o'rni va ahamiyati haqida kengroq ma'lumot beriladi. Bu orqali tilshunoslik va fonetika sohasida yangi bilimlarni rivojlantirishga hamda tilning fonetik xususiyatlarini yaxshiroq anglashga hissa qo'shiladi.

V.V.Reshetov o'zbek tilidagi i, u, o', a oraliq unlilarni Toshkent shevasi talaffuziga asoslanganligini, unlilarning bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash orqali berilganligini ta'kidlaydi.

Bizningcha, V.V.Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o'zbek tili fonetik-fonologik sistemasiga diaxron nuqtai nazardan yondashgan. U o'zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator buyicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo'qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo'lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan – konvergen-tsiyasidan hosil bo'lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan. Xuddi shu fikr professor F.Abdullaevda ham uchraydi.

Jahon tilshunosligida N.S.Trubetskoy dunyo tillarining ko'pida, masalan, sharqiy va g'arbiy Belarus tillarida ham unlilarning bunday holati tarixiy fonologik ahamiyatini yo'qotganligi, biroq qaysidir holatlarda u shevalar miqyosida saqlanganligini misol orqali izohlagan. Ta'kidlash kerakki, turkiy tillarning vokalizmiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda qator belgisi va lab ishtiroki belgisi unlilarni tasnif qilish uchun farqlovchi belgi sifatida qarab kelinadi.

Tilshunos olim E.Umarov o'zbek adabiy tilidagi bunday tasnif asosiga e'tirozli holda, o'zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan gapiradilarmi degan savolga "yo'q" deb javob berish kerakligini bayon qiladi, unlilarni og'izning ochilish darajasi va labning ishtirokiga ko'ra tasnif qilish o'rinli ekanligi haqida fikrlar bildiradi.

Haqiqatdan, turkiy tillar, ularning ayrim shevalar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko'ra ohanglashuvi hech kimda e'tiroz turdirmaydi. O'zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o'zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyal barcha shevashunos olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko'ra zidlanishni o'zida saqlab kelayotgan o'zbek shevalarida bir o'rinda qator buyicha korrelyatorlarning o'zaro almashinib ma'no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, Andijon shevasida [ət] inson organinomi, o'tmoq fe'li – [ot] maysa, olov, [or] o'tni o'rmoq – [er] sochni o'rmoq, [əz] olmosh – [oz] bosib o'tmoq, [yn] ovoq – [un] bug'doyning maydalangani.

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotganligi, shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmasligi haqida asosli fikrlar mavjud.

Umlaut uyg'ur tili va hozirgi o'zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq tumanlari, Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosdir. Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlari Qirg'iziston Res-publikasi chegaralariga yaqin bo'lsa-da, singarmonizm ta'siri kuzatilmaydi. Buni Yangiqo'rg'on tumani markazi, uning atrofi va Qayqi qishlog'i aholisi Namangan shahriga, yaqin joylashganligi, u erlarga umlautli sheva

vakillarining ko'chib borishlari bilan izohlaymiz.

Umlautning uch ko'rinishi – palatal, labial va lingvial mavjud. Birinchi turda birinchi bo'g'inning orqa qator keng unilisi keyingi bo'g'inning tor lablanmagan unilisi ta'siriga berilib, old qator unliga aylanadi. Masalan, Namangan viloyatining Uychi shaharchasi, Chortoq shahri, Uchqo'rg'on tumani Qayqi qishlog'i shevasida: [təsh'] toshi, [bəsh'] boshi, [qəsh'] qoshi, [shəl'] sholi, [səv'p] sovib, [səg'p] sog'ib, [əl'vər//ɔvər] olib yubor, [ɔtvər//ət'vər] otib yubor, [yɔzvər//yəz'vər] yozib yubor, [qəshqəldə:] qashqaldoq, [təv'p] tabib, [bər'p] borib, [yəzip] yozib kabi.

Ikkinchi turda birinchi bo'g'inning keng lablanmagan unilisi keyingi bo'g'inlardagi

lablangan unlilari ta'sirida lablashadi. Masalan, (Namangan sh., Uychi t., Chortoq t.): [tənyr] tandir, [ɔ:ɔɾyɪtt] ag'daryapdi, [ɔɔɔʷyɪdy//ɔɔɔʃyɪdy] ado, tamom bo'ldi kabi.

Uchinchi turda og'izning ochilish darajasi o'zgaradi. Keyingi bo'g'inning tor *i* unlisi ta'sirida birinchi bo'g'inning old qator keng unlisi o'rta-keng unliga aylanadi. Masalan, uyg'ur tilida: [kasish] kesish, [katti] ketdi kabi. Biroq Namangan viloyatining umlautlashgan shevalarida uchinchi tur ko'rinishi deyalı kuzatilmaydi. Toshkent shahar shevasida da *chakish* – chekish, chaqich – saqich, chakich – chekich kabi og'iz umlauti hodisasi kuzatiladi.

Uychi va Chortoq shevalarida ham mavjud: *ativor* – otib yubor, *yazivor* – yozib yubor, *olla* – xatla kabi.

Umlaut barcha turkiy tillarda ma'lum darajada uchraydi. U singarmonizmga teskari proporsional bo'lib, turkiy tillarda nisbatan keyingi hodisadir. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko'ra, umlaut assimilyatsiyaning keng rivojlanishi va o'ziga xos urg'u zaminida vujudga kelgan. Bir guruh tilshunoslarning fikricha, umlaut singarmonizm kuchsiz- lanishi bilan bog'liq.

Har ikkala – tanglay va lab garmoniyasi Namangan shahar shevasida viloyatdagi boshqa shevalarga nisbatan kuchli. Lekin oltoy, xakas, boshqird va qirg'iz tillaridagiga nisbatan kuchsiz. Bu o'rinda N. S. Trubetskoy fikrlariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Namangan shahar shevasida asos tarkibida burun tovushlari mavjud bo'lgan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda nazalizatsiyaning kuchliligi kuzatiladi. Nazalizatsiya unlilar artikulyatsiyasida burunda hosil bo'lgan rezonator tonning qo'shib berilishidir. Bu asosan burun orqali hosil bo'luvchi sonant talaffuzi bilan kontakt keluvchi unlilarda kuzatiladi: [qiling, boring, oling,] kabi. Chunki avvalgi tovush artikulyatsion rekursiyasi keyingi tovush artikulyatsion ekskursiyasiga teng keladi. Shuning orqasida avvalgi tovushdagi unning davomi keyingi tovushga ulashib ketadi va burun tovushining ham rezonator toni keyingi unli rezonator toniga qo'shiladi. Natijada unli artikulyatsiyasida ham burun rezonator toni qayd etiladi. Bunga nazalizatsiya deb qaraladi. Namangan shevasida odatiy hol deb qaralsa ham, Toshkent, Farg'ona yoki boshqa shevalarga xos deb aytish to'g'ri emas. O'zbek tilining boshqa shevalarida sonant ta'sirida unli nazalizatsiyasining sodir bo'lishi ancha kuchsiz. U Namangan va uning atrofi shevalarida odatiy hol ekanligini S. Otamirzaeva o'z izlanishlarida qayd etgan. Xullas, Namangan shahar shevasida ham ko'pgina so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi affikslar o'zlarining kontrast juftlariga ega. O'zak tarkibida til orqa unli mavjud bo'lsa, qo'shimcha iarkibidagi unli ham qattiq, til oldi unli mavjud bo'lsa, yumshoq talaffuzga ega bo'ladi.

Lab garmoniyasi. Ma'lumki, lab garmoniyasi qonuniga muvofiq o'zakning birinchi bo'g'inida lablashgan unlilardan biri bo'lsa, so'nggi bo'g'inlardagi unlilar ham lablashadi.

Namangan shahar shevasida lab garmoniyasi qonuni, oz bo'lsa-da, mavjud. Lablanish hodisasi birinchi, ikkinchi bo'g'inlarda sezilarli bo'lib, uchinchi va so'nggi bo'g'inlarga o'tishi sporadik. Lekin lab garmoniyasi mufassal saqlangan oltoy va qirg'iz tillaridan keskin farq qiladi. Mazkur tillarda affikslar faqat qattiq yumshoqligi bilan emas, balki lablangan va lablanmaganligi bilan ham ajralib turadi.

Namangan shahar shevasida affikslarning faqat qattiq va yumshoq variantlari mavjud bo'lib, sistemali emas. Quyidagi misollarga e'tibor qiling:

	Namangan shahar shevasida	Adabiy tilda
<i>u – u</i>	<i>uryv, syyyq, tug'yshgo</i>	uruv (devor urish), suyuq, tug'ishgan

$\theta - \gamma$	<i>qurydi, �rym, �kyn, �kylota</i>	quridi, o‘rim (soch), o‘kinmoq, vakilota
$\gamma - \gamma$	<i>k�kyn, tygyn, yg�yr</i>	kukun, tugun, yugur
$\gamma - \theta$	<i>k���p, sy��bi</i>	kuyov, surobi (<i>surobi tortilmoq</i>)

Misollardan ko‘rinadiki, Namangan shahar shevasida labial singarmonizmning faqat [*u-u*, * - *, * - *] va qisman [* - *] ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, qolgan [*v-v*, *u- *, *o- *, *o- *] tiplari yo‘q, uchramaydi.

Shevalarda ko‘plab hozirgi adabiy tilda uchramaydigan belgilar saqlab qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o‘rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalar chiqarishga imkon tug‘diradi. Xalq shevalaridagi bunday fonetik, leksik-grammatik fakt va asoslar, P.M.Melioranskiy ta‘biri bilan aytganda: “...qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik analiz qilishda noyob qo‘llanma vazifasini bajaradi”.

Xulosa. Maqolada unlilar bilan bog‘liq fonetik jarayonlar batafsil tahlil qilindi. Unlilar talaffuzida yuzaga keladigan o‘zgarishlar va ularning bir-biriga ta‘siri tilning fonetik tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonlar nutqning ravonligi va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi, shuningdek, tilning tabiiylik xususiyatini ta‘minlaydi. Fonetik jarayonlarning sabablari va shakllarini o‘rganish orqali tilshunoslikda yangi bilimlar hosil bo‘ladi hamda amaliy nutq madaniyatini rivojlantirishga imkon yaratiladi. Shunday qilib, unlilar bilan bog‘liq fonetik jarayonlarni chuqur o‘rganish tilshunoslik va nutq madaniyati uchun katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

References:

Используемая Литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. II - жилд. – Тошкент: Akademyashr, 2012. – Б. 273.
2. Трубецкой Н.С. Избранные труды по филологии. Фонология и лингвистическая география. – М.: Прогресс, 1987. – С. 31-36.
3. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми // Ўзбек тили ва адабиёти. – №4. –1994. – Б. 5-8.
4. Трубецкой Н.С. Избранные труды по филологии. Фонология и лингвистическая география. – М.: Прогресс, 1987. – С. 34.
5. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1974. – С. 26.
6. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умлаутный” или “уйгуризованных” говоров. – Фрунзе, 1946; Узбекские говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963;
7. Решетов В.В. Ўзбек тилининг қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1960;
8. Решетов В., Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.122.
9. Трубецкой Н.С. Основы фонологии / Пер. с немец. А.А.Холодовича; Подред. С.Д.Канциельсона. – М.: Аспект Пресс. – 2000. – 352 с. (Серия “Классический учебник”.) ;
10. Избранные труды по филологии. Фонология и лингвистическая география. – М.: Прогресс, 1987. – С. 31-36.